

HAYVONOT OLAMIDA KENG TARQALGAN BO'G'IMOYOQLILAR TIPI

Tursunboyeva Ma'mura Dostonbek qizi
Andijon Davlat Pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada hayvonot olamida keng tarqalgan, xilma -xil tuzilgan, har xil muhitga moslashgan va g'aroyib bo'g'imoyoqlilar tipi haqida o'rganilgan. Bo'g'imoyoqlilar umurtqasizlarning 2 mln.ga yaqin turini tashkil qiladi. Bo'imoyoqlilar tipi 3 ta sinifni o'z ichiga oladi, bular qisqichbaqasimonlar, o'rgimchaksimonlar hamda hashorotlar kabi sinflardir.

Kalit so'zlar: fauna, xitin qobiq, kutikula, getratirof, miksotselin, gemotsianin pigmenti, gemolimfa, traxeya, malpigi nayi, fasetkali ko'z, jag'oyoqlar.

Bo'g'imoyoqlilar barcha dengizlarda, okeanlarda va chuchuk suv havzalarida hamda yer yuzining quriqlik qismida keng tarqalgan. Bu hayvonlarni suvsiz jazirama issiq sahrolarda, Arktika va Antarktidaning qahraton sovug'ida ham uchratish mumkin. Turlarining xilma xilligi va yer yuzida tarqalishi jihatidan bo'g'imoyoqlilar boshqa hamma hayvonlarni birga qo'shib hisoblaganda ham bir nechga marta ustun turadi. Bo'g'imoyoqlilarning ajdodi tuban tuzilgan dengiz halqali chuvalchaglari hisoblanadi, ularning bitta yoki bir nechta umumiy ajdodlardan kelib chiqqanligi to'g'risidagi muammo hozirgacha uzil kesil hal etilmagan. Eng qadimgi bo'g'imoyoqlilardan tirilobitsimonlar quyi kembiriy qatlamlaridan boshlab uchraydi. Ordovik va silur davrida bo'g'imoyoqlilar quruqlikka chiqishgan.

Bo'g'imoyoqlilarning tana tuzilishi boshqa hayvonlardan mutlaqo farq qiladi, tanasi bo'g'imlarga bo'lingan, ikki tomonlama simmetriyali. Tanasi qattiq xitin kutikula bilan qoplangan. Xitin qoplag'ich tashqi skelet funksiyasini ham bajaradi, unga ichki tomondan muskul birikadi. Tana bo'g'imlari getranom, yani ularning shakli va kattaligi har xil bo'ladi. Bo'g'imoyoqlilar tanasi, odatda, bosh, ko'krak va qorin bo'limlardan iborat. Ko'krak va qorin bo'limlardagi bo'g'imlar har xil sistematik gurihlarda har xil. Bo'g'imoyoqlilarni oyoqlari ham bo'g'imlarga bo'lingan, oyoqlarini soni esa uch xil sinf vakillarida har xil.

Bo'g'imoyoqlilar tipini tashkil qiluvchi qisqichbaqasimonlarda va hashorotlar sinfi vakillarining ko'rish organi murakkab bo'lib, har bir ko'z juda mayda ko'zchalardan tashkil topgan. Hamma ko'zchalar birgalikda yaxlit tasvirni hosil qiladi. Bunday ko'rishni mozaik ko'rish deyiladi. Lekin o'rgimchaksimonlarda bunday murakkab ko'rish organi yo'q, aksincha to'rt juft oddiy ko'zchasi orqali ko'radi. Bo'g'imoyoqlilarni yer yuzida juda keng tarqalgan bo'lib, yuqorida takidlab o'tganimizdek 2 mnl dan ziyoddir, bu malumot Ochil Mavlonovning „umurtqasizlar zoologiyasi“ nomli kitobida keltirilgan, bundan tashqari J.Urchinovning „zoologiya“ nomli kitobida esa, bo'g'imoyoqlilarni 1.5 mnl ga yaqin ekanligi takidlangan. Bundan



30000 dan ortig'i qisqichbaqasimonlar tashkil qiladi. Ularning ayrim vakillari baliqchilik xo'jaliklarida va akvariumda baliq boqish uchun ko'paytiriladi.

O'rgimchaksimonlar esa haqiqiy qurilikkada yashovchi bo'g'imoyoqlilardir. Ularning 3500 tagacha turi malum. Bo'g'imoyoqlilar orasida zaxarli vakillari ham mavjud, ulardan biri chayonlar, ularni zaxar bezlari qornining oxirgi bo'g'imida bo'lib, bu yerda yana nayzasi ham bor, nayzaning uchida zahar bezining yo'li ochiladi. Chayonlar -eng qadimgi o'rgimchaksimonlar. Ularning turi 600 dan ortiq. Bir necha turi Markaziy Osiyoda uchraydi. Ko'pchilik vakillari mayda, bizning mintaqamizda chipor chayon *Buthus eupeus* keng tarqalgan. Uning uzunligi 6.5 sm ga yetadi. J.Urchinovning kitobida keltirilishicha chayonlar hattok i1.5 yilgacha ochlikka chiday oladilar.

Bo'g'imoyoqlilar tipining yana bir ajoyib vakillaridan biri bu hashorotlar sinfidir, bularning soni ham kitoblarda har xil keltirilgan. Masalan J.Urchinovning „zoologiya“ nomli kitobida 1mnl deb yozilgan bo'lsa, Ochil Mavlonovning kitobida 150 000 dan ortiq deb berilgan. Hashorotlarning g'aroyibligiga sabab shuki ularda hayvonlarda uchramaydigan organlar mavjud. Hashorotlarning timpanal organlari sekundiga 15000 dan 175000 gacha bo'lgan tovush tebranishlarini qabul qiladi. Ular ayniqsa ultra tovush tebranishlariga sezgir bo'ladi. Bu sinfga ya'na hammamizga tanish bo'lgan asalarilar ham kirzadi. Asalarilar oilasi bir mavsumda 100-120 kg asal va 25-30 kg gul changi yig'adi. Asalarilar gulli o'simliklarni changlantirib, hosildorlikni oshirishga yordam beradi. Bitta asalari oilasi bir mavsum davomida 30-40 ming gulni changlatib chiqadi.

Demak bo'g'imoyoqlilar tipini nihoyatda ko'p tarqalganligini yuqorida keltirilgan raqamlar orqali ko'rishimiz mumkin. Bu tip vakillari orasida foydali va zararli vakillari ham juda ko'p.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ochil Mavlonov, Sh.Xurramov, X. Eshova. „UMIRTQSIZLAR ZOLOGIYASI“ Toshkent 2006.
2. Rakhmonova Bakhora Kakhorovna, Marupova Madina Khikmatullayevna, & Toshtemirova Mokhira Makhmud kizi. (2023). IMPROVING THE SURGICAL METHOD OF SCAR MICRSTOMY. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 11(9), 300–304. Retrieved from <https://www.giirj.com/index.php/giirj/article/view/5572>
3. Makhmudovna, T. M., & Makhmadaminovna, K. D. (2023). THE COURSE OF MALFORMATION AND CORNEAL EROSION IN TUBERCULOSIS PATIENTS. *Open Access Repository*, 4(03), 60-66.
4. Toshtemirova Mohira Mahmud qizi, & Xudoyberdiyeva Xumora Hasanovna. (2023). CHANGES IN THE ORAL MUCOSA IN PREGNANT WOMEN. *Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development*, 12, 245–248. Retrieved from <https://sjird.journalspark.org/index.php/sjird/article/view/561>



5. R. A. Eshchanov, X. U. Bekchanov, M. X. Bekchanov. „ZOOLOGIYA VA ZOOTOXSINOLOGIYA ASOSLARI”
6. Madina Hikmatuloevna Marupova, Aziz Saidolimovich Kubaev, & Alisher Isomidinovich Khazratov. (2022). THE ESSENTIAL ROLE OF DIAGNOSTIC AND TREATMENT METHODS FOR PATIENTS WITH TEMPOROMANDIBULAR JOINT PAIN DYSFUNCTION SYNDROME. World Bulletin of Public Health, 10, 141-142. Retrieved from <https://scholarexpress.net/index.php/wbph/article/view/1015>
7. 7-sinf Zoologiya darsligi.

